

YANGI O'ZBEKISTON TURIZMI – INNOVATSION RIVOJ VA ISTIQBOLLI KELAJAK SARI...

Raximbayev O'tkir Fayzullayevich

Urganch Innovatsion Universiteti

NTM bosh yuristkonsulti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali Yangi O'zbekiston turizmini yanada rivojlantirishning ahamiyati va dolzarblii xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion rivoj, kelajak, istiqbol, boshqarish, huquqiy, masuliyat...

Ma'lumki, turizm sohasidagi ilmiy izlanishlarni olib borishda turizm va mehmonxona faoliyati yo'nalishi bo'yicha o'rganishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Zero, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali Yangi O'zbekiston turizmini yanada rivojlantirishning - davlat va jamiyat, ayniqsa kelgusi avlod hayotida muhimlik darajasining nazariy va amaliy tadbiqot masalasini soha rahbariyati mas'ulligi va keng jamoatchilik hamkorligida ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida keng qamrov va o'ziga xoslik bilan barqaror shakllantirish va loyihaning tizimli tartibini tashkillashtirishning ahamiyati katta. Turizmnинг bir nechta yo'nalishlari bo'lib, har birining boshqaruvi usullari mavjud. shulardan biri madaniy tuzrizmdir. Madaniy turizm - bu sayohatchilar mamlakat yoki din madaniyati, ayniqsa turmush tarzi va odamlar hayotini shakllantirgan boshqa elementlar bilan shug'ullanadigan joy. Turizmnинг bu yo'nalishi sayyoohlar marosimlar va festivallar kabi tegishli tadbirlarga tegishli bo'lib, yurtimizda madaniy turizm sohasiga ham katta e'tibor qaratilgan. O'zbekiston o'zining boy madaniy va tarixiy merosi, betakror me'morchiligi va san'ati bilan turizm sohasini boshqarishning huquqiy asoslarini yaratilishiga asos bo'ladi. Bunda Toshkent,

Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Urganch, Termiz, Qoraqalpog‘istonning qadimiy tarixiy obidalari O‘zbekistonidagi tarixiy va ma’rifiy turizmning asosiy poydevori hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizda 400 dan ortiq turli xil muzeylar mavjud bo‘lib, shulardan 155 tasi davlatga tegishli. Ularning asosiy yo‘nalishi – tarix, o‘lkashunoslik, tasviriylar amaliy san’at, shuningdek taniqli madaniyat va san’at arboblarining memorial uy-muzeylari. Mamlakatdagi eng taniqli, yirik va ahamiyatli muzeylar qatoriga O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston davlat amaliy san’at muzeyi, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu muzeylar ham Yangi O‘zbekiston turizmida innovatsion rivoj va istiqbolli kelajak sari qadam qo‘yishda dolzarbdir.



O‘zbekistonning turizm sohasidagi rivojlanishini yangi boshqaruvin tizimini shakllantirish, turistik biznesni yuritishga yordamlashadigan qo‘shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm tarmog‘ining mintaqaviy boiinmalarim tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiylashtirilgan turistik korxonalarini litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e’tibor berildi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining «Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklashda ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojiantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni Buyuk Ipak yo‘lida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda turizm sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichini boshlab berdi.

Bugungi kunda, ko‘pchilik turistik obyektlar o‘zlarini mustaqil ravishda boshqara boshladi, xizmatlar bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, ular o‘miga samarali ishlovchi yangi xususiy korxonalar tashkil etildi. Mamlakatni modernizatsiyalash bosqichida turizm va mehmondo‘stlik industriyasi sohasidagi yechimini kutib turgan masalalar qatorida, turizm industriyasi mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo‘yiladigan malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash dolzarb masala bo‘lib turibdi. Demak, Yangi O‘zbekiston turizmi – innovations rivoj va istiqbolli kelajak sari qadam qo‘yishda mamlakatimizda qabul qilinayotgan qator Qaror, Farmon va targ‘ibot ishlarini tashkil etilishi ham muhim ekan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni e’lon qilingangi ham aynan shu sohadagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, istiqbolli rejalar tuzishni talab etadi. Bundan tashqari, turizmga investitsiya kiritish uchun avvalambor bu sohani rivojlanishi uchun ma’lum bir darajada shart-sharoitlar kerak bo‘ladi. Turizm ham mavsumiy bo‘lishi hech birimizga sir emas. Turizmning rivojlanish sohasi bizning yurtimizga chet davlatlaridan kirib kelgan. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay, bizning zaminimiz ham judayam turistik manzilgohlarga boyligi ushbu sohada mustahkam va istiqbolli boshqaruv tizimini yaratishni taqazo etadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, turizm sohasi bizning yurtimizda ham iqtisodiyotning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Bu sohaga kiritilgan sarmoya albatta o‘z o‘rnini topadi va kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Har bir davlat o‘z yurtini butun dunyoga tanitish uchun ham o‘zining turizm sohasini yetarli ehtiyojlar bilan ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mintaqaviy turizm.A.Norchayev.T-2020-yil.
2. Alieva M.T. Turizm'da atrof-muhitni boshqarish. Darslik-T.:Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021-yil.